

TASDIQLAYMAN:

PR direktori



S.T. Tadjiyev

S.T. Tadjiyev

"24" *fevral* 2026-y.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha raqamli tahlil (Digital Analytics)
xizmatlarini internetda xarid qilish bo'yicha
TEXNIK TOPSHIRIQ**

"UMS" MCHJ ehtiyojlari uchun

Toshkent sh.
2026-yil

Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1 Bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) nomi	3
1.2 Ishlar va xizmatlar ro'yxati	3
2. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar	4
3. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) muddatlari	5
4. Xavfsizlik talablari	5
5. Obyektga bo'lgan mutlaq huquqlar va boshqa hujjatlarni o'tkazish tartibi	5
6. Xodimlarni texnik o'qitishga qo'yiladigan talablar	5
7. Qo'shimcha talablar	5
8. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati	5
9. Ilovalar ro'yxati	5

1. Umumiy ma'lumot

1.1 Bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) nomi

Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha raqamli tahlil (monitoring va tahlil tizimi) bo'yicha xizmatlar kompleksini ko'rsatish.

1.2 Ko'rsatilayotgan xizmatlardan foydalanish asosi va maqsadi

O'zbekiston telekommunikatsiya kompaniyalarining internetdagi faoliyati muhitini tahlil qilish, bu internet foydalanuvchilari - kompaniyaning potensial abonentlari orasida brend obro'sini boshqarish, ular bilan aloqani yaxshilash, fikr-mulohazalarni to'plash, murojaatlar/fikr-mulohazalarni tezkor qayta ishlash imkonini beradi.

1.3 Ishlar va xizmatlar ro'yxati

Mobiuz brendi va O'zbekiston mobil operatorlarining axborot maydonini monitoring va tahlil qilish bo'yicha xizmatlar majmuasini xarid qilish zarur:

- *O'zbekistonning barcha mobil operatorlari uchun ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarini avtomatik monitoring qilish tizimini ulash;*

- *Kompaniyaning mas'ul bo'linmasi xodimlariga Brand Analytics tizimining shaxsiy kabinetlariga, shuningdek, Brand Vision yopiq ijtimoiy media platformalarini kuzatish tizimiga kirish huquqlarini cheklagan holda, shu jumladan barcha operatorlarni kuzatish uchun to'liq kirish imkoniyatini taqdim etish;*

- *Qidiruv so'rovlarining semantik yadrosini ishlab chiqish, ma'lumotlarni to'plashning maksimal darajada to'liqligini ta'minlash uchun muntazam ravishda tuzatishlar/qo'shimchalar kiritish;*

- *Teglar tizimini ishlab chiqish, agar kerak bo'lsa, ish jarayonida tuzatishlar/qo'shimchalar kiritish;*

- *Inqirozli vaziyatlar haqida avtomatik ogohlantirish tizimini 24/7 ulash;*

- *24/7 onlayn qo'llab-quvvatlash;*

- *Tizimning avtomatik hisobotlariga kirish (word, pdf, ppt, excel);*

- *O'zbekiston mobil aloqa operatorlarining axborot maydonini monitoring qilish yakunlari bo'yicha Ijrochining kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan tahliliy hisobotlari - har oyda 12 oy davomida, shuningdek, choraklar, yarim yilliklar va yil yakunlari bo'yicha.*

- *Oylik tahliliy hisobotlarga 5 tagacha PR-loyihalarni amalga oshirish natijalarini va Buyurtmachining 5 tagacha mahsulot/xizmatlarining holatini kiritish;*

- *Buyurtmachi xodimlarini o'qitish va shaxsiy menejer*

- *Mahalliy texnik yordam rus va o'zbek tillarida.*

2. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

Tanlovda mulkchilik shaklidan qat'i nazar har qanday shaxslar, shu jumladan O'zbekiston hududida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari ishtirok etishi mumkin.

Ishtirokchi quyidagilarni bajarishi kerak:

Brand Analytics xalqaro tahlil tizimi, shuningdek, O'zbekistonning Brand Vision yopiq ijtimoiy media platformalarini monitoring qilish tizimining amaldagi rasmiy hamkori bo'lish. Ko'rsatilgan resurslar bilan unvonli hamkorlikka ega bo'lish va ko'rsatilgan platformalarga kirishni tasdiqlash imkoniyatiga ega bo'lish (platformalar huquq egasidan tegishli xat, "Oltin hamkor," "Kumush hamkor," "Bronza hamkor" sertifikatlari va boshqalar).

OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi kamida 500 000 ta nashrlarda monitoring obyektlariga har oyda eslatmalar hajmini ta'minlash. Shuningdek, ishtirokchi SP-5 va undan yuqori tarif rejasida Brand Analytics platformasiga amaldagi kirish huquqiga ega bo'lib, Brand Analytics bilan tuzilgan shartnoma nusxasini taqdim etish orqali ushbu fakti tasdiqlash imkoniyatiga ega.

Raqamli tahlil sohasida uzluksiz tajribaga ega bo'lish - kamida 5 ta loyiha bo'yicha tegishli portfolioga ega bo'lish.

O'xshash xizmatlar bajarilganini tasdiqlovchi tavsiya xatlariga ega bo'lish.

O'zbekiston uyali aloqa operatorlari bo'yicha istalgan oldingi davr uchun demo-hisobotni taqdim etish.

Shtatda yoki DXSH shartnomasi bo'yicha: tizimlarni muntazam monitoring qilish va moderatsiya qilish, shuningdek, hisobotlarni o'z vaqtida shakllantirish uchun kamida uchta sertifikatlangan ma'lumotlar tahlilchisiga, shuningdek, kamida uchta moderatorga ega bo'lish.

3. Xizmat ko'rsatish muddatlari

Xizmatlar ko'rsatuvchi "UMS" MCHJ bilan shartnoma imzolangan kundan boshlab 12 oy davomida xizmatlar ko'rsatadi.

Xizmatlar ko'rsatuvchi tahliliy hisobotlarni: har oylik - hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasi kechiktirmay; har choraklik - hisobot choragidan keyingi oyning 12-sanasi kechiktirmay; yarim yillik - 2026-yil 15-iyuldan va 2027-yil 15-yanvardan kechiktirmay, yillik - 2027-yil 20-yanvardan kechiktirmay taqdim etadi.

Monitoringni boshlash muddati - 2026-yil 1-yanvardan 2026-yil 31-dekabrgacha.

4. Navbatlik talablari

Bajaruvchi o'ziga yuklatiladigan majburiyatlarni hisobga olgan holda bajariladigan ishlarning muddati va sifati uchun to'liq javob beradi.

Ijrochi Buyurtmachining oldindan roziligini olmasdan turib maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmasligi, mazmunini muhokama qilmasligi, muxxalarini taqdim etmasligi, nashr etmasligi va boshqa shaklda uchinchi shaxslarga oshkor qilmasligi kerak.

5. Topshirish va qabul qilish qoidalari bo'yicha talablar

Ijrochi ko'rsatilgan xizmatlar asosida Shartnomada kelishilgan muddatlarda Buyurtmachiga tahlil bo'yicha hisobot taqdim etadi. Hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Tadqiqot metodologiyasi (maqsadi, ma'lumotlar to'plami, davri, geografiyasi).
2. Tilga olinishning asosiy ko'rsatkichlari dinamika, mualliflar, jalb qilinganlik, sodiqlik indeksi.
3. Boshqa mobil aloqa operatorlari tahlili. Raqobatchilar bilan solishtirganda eslatmalar dinamikasi.
4. Xabarlar tonalligi (fikrlar tonalligining o'zgarish dinamikasi).
5. Muhokamalarning asosiy mavzulari, mavzuiy guruhlarga bo'lingan taqrizlar. Manba turlari.
6. Infomaydon tahlili (muammoli hududlar, xulosalar, tavsiyalar).

Shartnoma asosida haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi ikkala tomon tomonidan imzolanadigan tegishli bajarilgan ishlar dalolatnomasi bilan tasdiqlanadi.

Shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Ushbu Shartnoma umumiy qiymatining 0,1% miqdoridagi oldindan to'lov shartnoma tuzilgan kundan boshlab 5 bank kuni ichida amalga oshiriladi.

- Qolgan summa ko'rsatilgan xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomalari va hisobvaraqq-fakturalar asosida shartnomaga kiritilgan xizmatlarning oylik hajmini ko'rsatish yakunlari bo'yicha 12 oy davomida teng ulushlarda to'lanadi.

6. Kafolatlar hajmi va yoki muddati bo'yicha talablar

Iштиrokchi quyidagilarni kafolatlaydi:

- Xizmatlar Shartnomaga qat'iy muvofiq ravishda ko'rsatiladi;
- Shartnomaning kelishilgan muddatlari/tartibi/shartlari buzilishiga olib keladigan kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, Ijrochi bu haqda zudlik bilan "UMS" MCHJ

Jamoatchilik bilan aloqalar guruhiga xabar beradi, shuningdek, yuzaga kelgan vaziyatni hal qilish uchun barcha zarur choralarni ko'radi. Bunday holatlarga quyidagilar kiradi: Ijrochi resurslarining vaqtincha mavjud emasligi/faoliyatining tugashi, monitoring shartlarining o'zgarishi, shuningdek, kelishuvlar (yozma va og'zaki) shartlarining buzilishiga olib keladigan boshqa holatlar.

- Shartnomaning amal qilish muddati davomida Buyurtmachiga texnik va tahliliy yordam ko'rsatadi.

7. Obyektga bo'lgan mutlaq huquqlar va boshqa hujjatlarni berish tartib-taomili

Ijrochining hisobotlari/materiallariga bo'lgan barcha mutlaq huquqlar, shu jumladan ulardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanish huquqlari "UMS" MCHJga tegishli.

Ijrochi "UMS" MCHJning yozma ruxsatisiz hisobotlardan/materiallardan boshqa maqsadlarda foydalanishga haqli emas.

8. Xodimlarni texnik o'qitish bo'yicha talablar

Bajaruvchi Jamoatchilik bilan aloqalar guruhi xodimlariga OAV va ijtimoiy tarmoqlar monitoringi tizimiga kirish huquqini taqdim etishi shuningdek, ularni o'qitishi zarur.

9. Qo'shimcha talablar

Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati

T/r	Qisqartirish	Qisqartirishni rasshifrovka qilish
1.		

10. Hovalar ro'yxati

T/r	Hova nomi	Sahifa raqami/Varaqlar soni

Ishlab chiqilgan:

Yetakchi mutaxassis

Jamoatchilik bilan aloqa
guruhlari



R.S. Xodjayeva